



YOSH ILMIY TADQIQOTCHI

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MAQOLALAR TO'PLAMI

2025-yil 12-13-mart



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING

“YOSH ILMIY TADQIQOTCHI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

Buxoro shahri, 2025-yil 12-13-mart

BUXARA -2025
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti

6. Dala yozuvlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Jizzax viloyati boshqarmasi tasarrufidagi Nurli Maskan maktab internati direktori Sangirova Gulshoda. 2025-yil.
7. Dala yozuvlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Jizzax viloyati boshqarmasi tasarrufidagi Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan 1-sonli kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab internati direktori Toshbekov Nizom Davronovich. 2025-yil.
8. Dala yozuvlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Jizzax viloyati boshqarmasi tasarrufidagi Nurli Maskan maktab internati direktori Sangirova Gulshoda. 2025-yil.
9. Dala yozuvlari. O‘zbekiston milliy paralimpiya qo‘mitasi Jizzax viloyati paralimpiya bo‘limi derektori Savurboyev Akmal Abdumo‘minovich. 2024-yil.

JALOLIDDIN MANGUBERDINING FE’L-ATVORI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Murodova Mavjuda Alisherovna,
Buxoro davlat universiteti*

Tarix va Yuridik fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Utayeva Feruza Xolmamatovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yurtimiz tarixida chuqur iz qoldirgan va mo‘gullar bosqinidan Yevropa xalqlarini qutqarib qolgan sarkarda Jaloliddin Manguberdi tarixiga va shaxsiy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Buyuk sarkarda hamda Xorazmshoh sultoni bo‘lgan bu shaxsning tarixi va fe’l -atvorini o‘rganish bugungi kunda tarixchilar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Zero, Jaloliddin Manguberdining fe’l atvori va insoniy fazilatlarini manbalar asosida o‘rganib kelajak avlodga yetkazishimiz oldimizda turgan asosiy maqsadimizdir. Maqolada, Jaloliddin Manguberdining shaxsiyati, insoniy fazilatlar va tashqi ko‘rinishi tavsiflab o‘tiladi.

Kalit sozlar: Xorazmshoh, buyuk hukmdor, jasorat, vatanparvarlik, iste’dod, Vatan ozodligi, qobiliyat, hurmat, tarix, yutuqlar, ma’naviyat, ishonch.

KIRISH. Jaloliddin Manguberdi 1198-1231-yillarda, ayniqsa, O‘rta Osiyoda mashhur bo‘lgan, shuningdek, tarixda o‘zining liderlik qobiliyati, jasorati va ulkan strategik fikrlash qobiliyati bilan ajralib turadigan shaxsdir. U, o‘zining atvori (xulqi) va boshqaruv uslubi bilan keng tanilgan. Jaloliddin Manguberdi o‘zining shaxsiy sifatlari va qarorlarida kuchli iroda, dono va halol yondashuv, hamda adolatga sodiqlik kabi xususiyatlarni namoyon etgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishlari bo‘yicha” Harakatlar strategiyasining IV ustuvor yo‘nalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘shlangan. Unda, “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etishdagi fikrlari yoshlarni ilmiy va dono zukko bo‘lishga undaydi.

Jaloliddin Manguberdi el-yurt istiqloli uchun kurashgan, o‘zining donoligi va zukkoligi bilan ajralib turgan insonlardan. Xalqini mo‘g‘ullardan ozod qilish yo‘lda aziz jonini qurbon qilgan ajdodlarimizning buyuk namoyandasidir. Ona yurtga muhabbat va sadoqat, or-nomus va shon-sharaf bobida Jaloliddin Manguberdiga teng keladigan ulug‘ shaxslar dunyoda kamdan-kam uchraydi, – deb ta’riflangan.

Shixobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” hayoti tafsiloti asarida Jaloliddin Manguberdiga quyidagicha ta’rif berilgan: bug‘doy mag‘iz ranglik, o‘rta bo‘yli, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham sozlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, janglardagi faoliyatini eslab o‘tishning o‘zi kifoya qiladi.

Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullarga qarshi kurash jarayonidagi holatlariga bir qancha tarixiy manbalarda keltirib o‘tilgan. Sherlar orasida eng zo‘r sher edi, qo‘rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. Jaloliddin Manguberdi muloyim, muomalali, jaxldor emasdi hattoki, haqoratomuz so‘zlarni aytmasdi deb keltirib o‘tilgan. Hayotda nihoyatda jiddiy bo‘lgan, kulmasdi, faqat jilmayib qo‘ygan va kam gapirgan. Jaloliddin Manguberdi haqgo‘ylikni, adolatni

ulug’lagan, ammo u yashagan davrdagi g’alayonlar, alg’ov-dalg’ovlar fel-atvorini o’zgartirgan. U qo’l ostidagi odamlarning og’ir hayotini yengillashtirishni hohlardi, ammo u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etgan.

Jaloliddin Manguberdining eng muhim fazilatlaridan biri jasoratdir. U doimo oldinga intilgan, hatto katta xavf-xatarlar mavjud bo’lsa ham, janglarda qat’iyat bilan jang qilgan. Mo’g’ullar zulmiga qarshi qo’zg’olon ko’tarishda, ko’plab o’zining safdoshlari va xalqini birlashtirib, mo’g’ullarga qarshi shiddatli qarshilik ko’rsatgan. Bu uning o’z vataniga bo’lgan sadoqatini va xalqining mustaqilligi uchun kurashga tayyorligini ko’rsatadi.

Manguberdining strategik tafakkuri uni eng mashhur qo’mondonlardan biriga aylantirgan. U janglarda nafaqat jangovar kuchlarni, balki raqibning harakatlarini tahlil qilish va har bir vaziyatga mos ravishda harakat qilishni ham bilgan. Uning qaror qabul qilishdagi o’ziga xos xususiyati aniq va tez bo’lib, ba’zida o’zining uzoqni ko’rish qobiliyati bilan ajralib turgan.

Jaloliddin Manguberdining fe’l-atvorida sadoqat va vatanparvarlik kuchli o’rin tutgan. U o’z xalqiga bo’lgan sevgisi, yurtni mudofaa qilishga bo’lgan ishtiyoqi bilan tanilgan. Ularning manfaatlarini birinchi o’ringa qo’ygani sababli, o’z hayotini xavf ostiga qo’yishdan tortinmagan. Jaloliddin Manguberdi shuningdek, o’zining qahramonliklarini va janglarda erishgan zafarlarini faqat o’zining shaxsiy foydasi uchun emas, balki xalqining mustaqilligi uchun amalga oshirgan.

Manguberdining boshqaruv uslubi ham o’ziga xos xususiyatlarga ega edi. U o’z davlatida adolatni saqlashga harakat qilgan. Harbiy va siyosiy qarorlarida xalq manfaatlarini o’ylab, odamlarni adolatli boshqarish, ularga rahm-shafqat va hurmat ko’rsatish hamda ijtimoiy tenglikni ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, u nohaqlikka va zulmga qarshi kurashgan.

Xorazmshohlar saltanati Turon va Eron tarixida o’z davrining qudratli saltanatlaridan edi. Uning so’nggi sultoni Jaloliddin mo’g’ullar bosqinidan so’ng hayoti asosan janglar va qarama-qarshiliklarda o’tdi. Uning Xorazm, Xuroson, Shimoliy Hindiston, Eron va Kavkazortida hududlarda meros davlatni qayta

tiklash yo‘lidagi faoliyati yuqoridagi sanab o‘tilgan asarlarda berilgan bo‘lsada, ularni tanqidiy o‘rganish va yondoshish lozim. Jaloliddin hayoti yoritilgan arab va fors tilidagi asarlarni tahlili asosida ushbu manbalarda uning shaxsi ko‘p hollarda ijobiy, hatto qahramona gavdalantirilgan. To‘g‘ri Ibn Al-Asir va Juvayniylar o‘z asarlarida Jaloliddinni jizzaki va qiziqqon qilib tasvirlansada, uning qahramonliklarini hech mubolag‘asiz yozib qoldirgan.

“Tarixi Vassof” asari o‘rganilishi qiyin kechgan va ayni damda xuloqiylar hamda XIII asr oxiri mintaqqa tarixiga oid muhim asar ekanligi takidlangan. Manbada Xorazmshohlar va mo‘g‘ullar istilosi haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan. Unda Jaloliddin Manguberdining haqida hikoya qilingan bo‘lib, muallif Rashiddin va Juvayniyning avvalgi tarixiy asarlariga ergashib, uni yetuk sarkarda va jasorat sohibi sifatida tasvirlagan.

Mo‘g‘ul lashkarboshilaridan biri Taynal no‘yon Jaloliddinning bu jangdagi jasoratini ko‘rib, shunday degan ekan: “Haqiqatan ham u o‘z davrining bahodiri va tengqurlarining dohiysidir!”

Jaloliddin Manguberdining Vatani, millati va dinining g‘ururini barcha narsadan ustun qo‘yishini tarixchilarning ushbu qaydlaridan ham bilsa bo‘ladi

Manguberdining fe‘l-atvorida yana bir muhim jihat, uning muammolarni hal qilishda sabr-toqat bilan yondashganligidir. U o‘zining eng katta dushmaniga, ya’ni mo‘g‘ul imperiyasiga qarshi kurashish uchun jahondagi eng katta qarshiliklarni ko‘rsata olgan. U strategiya, tahlil va kutish orqali muvaffaqiyatga erishgan, bu esa uning sabr-toqatini va muammolarni hal qilishdagi muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Jaloliddin Manguberdi adolatli hukmdor sifatida tanilgan. Uning adolatli qarorlari va insonparvarlik siyosati orqali yoshlar adolat va insoniy qadriyatlarga hurmatni o‘rganadilar. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyatidan foydalanish, yoshlarga vatanparvarlikni o‘rgatishda keng imkoniyatlar yaratadi. Uning hayoti va faoliyati orqali yosh avlodga jasorat, vatansevarlik, liderlik, adolat va insonparvarlik kabi muhim qadriyatlarni singdirish mumkin. Bu esa, kelajakda mamlakatimizning yorqin kelajagini qurishda muhim o‘rin tutuvchi, yuksak

ma'naviyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyatidan foydalanish orqali yoshlarga vatanparvarlikni o'rgatishning yanada chuqurroq jihatlarini ko'rib chiqish mumkin. Uning hayoti va kurashlari orqali turli darslar o'rganilishi mumkin, bu esa yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi.

Jaloliddin Manguberdi hayotidagi qiyinchiliklar va sinovlar, yoshlarga hayotda duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tish, ularni sabr va matonat bilan qabul qilish kerakligini o'rgatadi. Bu, ularni hayotda turli to'siqlarga bardoshli va chidamli qiladi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, Jaloliddin Manguberdi o'zining ajoyib jasorati, strategik tafakkuri, sadoqati, adolatlilik va boshqaruvdagi muammolarni hal qilishdagi sabr-toqat bilan ajralib turadi. Uning fe'l-atvori va xususiyatlari tarixda yuksak hurmatga sazovor bo'lib, kelgusi avlodlar uchun o'rnak bo'lib qoladi. Shuningdek, uning xarakteri va insoniy fazilatlari bugungi kunda ham o'rganilmoqda, va bu uning tarixiy merosini yanada boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Bunyodov Z. Anushtegin Xorazimshohlar davlati (1097-1231). Rus tilidan Ashraf Ahmad va Mahkam Mahmud tarjimasi. T.: Gafur Gulom nomidagi adabiyot va sanat nashryoti, 1998-yil, 232 bet
2. Bo'riyev O., Toshev N. Jaloliddin Manguberdi (Davri, Sarkardalik faoliyati. Manbalar.) T.: Fan, 1990.-B 34
4. Utayeva, F., & Safarov, B. (2023). ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА. *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 303-307.
5. Shixobiddin Muhammad an-Nasaviy "Sulton Jaloliddin Manguberdi" hayoti tafsiloti. T.: "Yozuvchi", 1999. O'zgarish va qo'shimchalar bilan 2006.
6. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. –Т.: Шарк, 2001.
7. Utayeva, F. (2024). IBN SINO ILMIY MEROSINING JAHON SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN O'RNI. *Modern Science and Research*, 3(10), 1-7.
8. Sagdullayev A. S. O'zbekiston tarixi. –T.: 2019.9. Содиқов Х. Султон Жалолиддин Мангуберди. –Т.: ART FLEX, 2009.
9. Utaeva Feruza Kholmamatovna. Activities and Financial Status of Bukhara Mangit Rulers in The Years Of Independence. *Middle European Scientific Bulletin*, VOLUME ISSN 2694-9970 684. 2021 4 (4), 684-688

		<i>уйғониш – Учинчи Ренессанс асоси</i>	
100.	Ф.У.Темиров Дилфуза Иззатова	<i>Жадидлар илмий – маънавий меросини ўрганиш – Янги Ўзбекистон ва Учинчи Ренессанс пойдеворидир</i>	532
101.	Ф.У.Темиров Феруза Камолова	<i>Шайбонийлар даврида Бухорода адабиёт, санъат ва меъморчилик</i>	536
102.	To‘ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi	<i>Zomin tumani maktabgacha va maktab ta’limi tarixi (1991-2011 yillar)</i>	540
103.	Ro‘ziyev Mirzobek Oltiboy o‘g‘li	<i>Gender tengligi huquq amaliyotidagi ayrim muommolar tahlili</i>	549
104.	Ro‘ziyev Mirzobek Oltiboy o‘g‘li	<i>Konstitutsiya - mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar poydevori</i>	556
105.	Eshchanov Hurmat Matnazarovich	<i>Mustaqillik yillarida o‘zbekiston hududi ilk temir davri mudofaa inshootlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga doir ba’zi mulohazalar</i>	561
106.	Xamidova Shoiria Rasulovna	<i>O‘zbekiston Respublikasi Paralimpiya qo‘mitasi Jizzax viloyati hududiy bo‘limi tarixi xususida (2022-2023yy)</i>	563
107.	Murodova Mavjuda Alisherovna	<i>Jaloliddin Manguberding fe‘l-atvori va uning o‘ziga xos xususiyatlari</i>	575
108.	Obidova Gulchehra Utayeva Feruza	<i>Boburiylar sulolasi davrida hindiston me‘morchiligi</i>	580
109.	Utayeva Feruza Sharipova Marjona	<i>Yengil sanoatni rivojlantirishda xotin- qizlarning o‘rni</i>	585
110.	Xolmurodova Nasiba Yunus qizi	<i>Arxeologik va yozma manbalar asosida buxoro tarixining o‘rganilishi</i>	590
111.	Haitov J.Sh.	<i>“Turkiston to‘plami” – Amerika paxta navi tarqalishi tarixini o‘rganishning muhim manbasi</i>	596
112.	Sharipova Parizod Quvvatjon qizi	<i>Mustaqillik davrida Buxoro va Samarqand viloyatlaridagi yengil sanoat</i>	601
113.	Назарова Райхон Шавкатовна	<i>Художественные приёмы и их роль в раскрытии образов исторических личностей в трилогии хилари мантел</i>	610
114.	Narzulloyev Farrux Nozim o‘g‘li	<i>Buxoro vohasi shaharsozligida mudofaa devorlarining o‘rni (kanpirak devori misolida)</i>	614
115.	Ф.У.Темиров A.Ro‘ziyev	<i>Mo‘g‘illar istilosi davri manbalarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayoti</i>	621
116.	Sh. F. Karimov	<i>Turar-joylarni o‘rganish moddiy madaniyatning muhim komponenti</i>	626
117.	Islomova Sarvinoz	<i>Shayboniylar davri davlat boshqaruvi</i>	629
118.	Qudratova Kumushoy Murodon qizi	<i>BMtning inson huquqlarini himoya qilishdagi yutuqlari va kamchiliklari</i>	635
119.	Hikmatova Salomat	<i>Ilk temir davri Baqtriya shaharsozligi</i>	646



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING
“YOSH ILMIY TADQIQOTCHI”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANIDA
FAOL ISHTIROKI UCHUN

Utayeva Feruza

SERTIFIKAT

BILAN TAQDIRLANADI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI REKTORI:

O.XAMIDOV

Buxoro 2025-yil 12-mart

